

Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi



Korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o'tishini endi keng jamoatchilik yaxshi tushunadi. Bu illatga qarshi kurash - toza vijdonli, oriyatli ziyolilarning qalb amriga aylanmog'i lozim.

Aytish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, tamagirlik kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga minb'ad chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarur. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo'l urmaydi.

Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lini o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini hayot ko'rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko'zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Mutaxassislar fikricha, korrupsiya so'zi "sotish" va "sotilish" degan ma'nolarni ham anglatar ekan. Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari, o'zining kimligini, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro'sini to'kadi, unga non-tuz berib katta qilgan, ilmu hunar, obro' va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo'yadi.

Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan qutqarish sharaflı burchimiz ekanligini hamma birdek tushunmog'i shart. Aks holda, o'ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo'rlik va tamagirlikdan tiyila olmayotgan shaxslar jazoga tortilishi muqarrar!

Zero, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-211-moddalarida pora olish va pora berish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

